

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

RADJABOV XUSHVAKT JAMSHEDOVICH

**O‘ZBEKISTONDA AKSIZ SOLIG‘I MA‘MURCHILIGINI
TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI**

08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Огловления автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD) on
Economical sciences**

Radjabov Xushvakt Jamshedovich

О'zbekistonda aksiz soliq ma'murchiligini takomillashtirish
yo'llari..... 3

Раджабов Хушвакт Жамshedovich

Пути совершенствования администрирования акцизного налога в
Узбекистане..... 27

Radjabov Khushvakt Jamshedovich

Ways to improve excise tax administration in Uzbekistan..... 53

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ
List of published works..... 58

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

RADJABOV XUSHVAKT JAMSHEDOVICH

**O‘ZBEKISTONDA AKSIZ SOLIG‘I MA‘MURCHILIGINI
TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI**

08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2024.2.PhD/Iqt4108 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va «ZiyoNet» axborot-ta'lim portaliga (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Tuxliev Bozor Karimovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Tashmurodova Buvsara Egamovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ashurova Nasiba Batirovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Etakchi tashkilot:

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/10.12.2019.I.16.01 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil «__» _____ soat ___dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@[tsue.uz](mailto:info@tsue.uz).

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (___raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi 49-uy. Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@[tsue.uz](mailto:info@tsue.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «__» _____ kuni tarqatildi.

(2025-yil «__» _____ dagi ___raqamli reestr bayonnomasi).

S.U.Mexmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

U.V.Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, i.f.d., professor

S.K.Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotida aksiz soliq ma'murchiligi davlat budjeti daromadlarining barqarorligini ta'minlovchi asosiy manba bo'lib, iqtisodiy rivojlanish jarayonlarida muhim rol o'ynaydi. Aksiz soliqlaridan samarali foydalanish orqali mamlakat ichida ishlab chiqariladigan tovarlar va xizmatlar sifatini yaxshilash, raqobatbardoshligini oshirish imkoni paydo bo'ladi. Aksiz soliq ma'murchiligining ilg'or mexanizmini joriy etish, soliqlarni yig'ish jarayonini soddalashtirib, soliq organlari va ishlab chiqaruvchilar o'rtasida shaffof hamkorlik muhitini yaratadi. Aksiz solig'ining qadim davrlardan hozirgi kunga qadar bu darajada keng tarqalishining asosiy sababi, fiskalligining ahamiyati va yig'uvchanlik darajasining yuqoriligidir. Bu haqda, hatto 1666-yilda fransuz iqtisodchisi F.Demezson ta'kidlab o'tgan edi: "aksizning birgina o'zi boshqa barcha soliq tushumlari va undan ham ko'proqni berishga qodirdir"¹. Aksiz soliq ma'murchiligi jamiyatda iste'mol odatlarini shakllantirish, ko'p hollarda zararli yoki kamyob xomashyolardan tayyorlanadigan mahsulotlarning narxini boshqarish orqali iqtisodiy resurslarni to'g'ri taqsimlashda xizmat qiladi. Uzluksiz islohotlar va soliq ma'murchiligini modernizatsiya qilish aksizlar sohasida zamonaviy talablarga mos boshqaruv tizimini shakllantirib, iqtisodiyotda barqaror o'sish va samaradorlikni ta'minlaydi.

Jahonda globallashtirish jarayonlarining kuchayib borishi sharoitida aksiz soliq ma'murchiligini takomillashtirish muammolari bo'yicha ilmiy izlanishlar kengayib bormoqda. Elektron platformalar, raqamli monitoring, blokcheyn va boshqa axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali soliq hisobotlarini shaffoflashtirish, aksiz soliqlariga oid normativ-huquqiy hujjatlarni zamonaviylashtirish, milliy qonunchilikni xalqaro me'yorlar bilan muvofiqlashtirish, aksiz soliqlarini hisoblash hamda to'lash protseduralarini optimallashtirish, aksiz soliqlari stavkalaridagi o'zgarishlarning aholi turmush darajasi, bozor rag'batlari va tegishli tarmoqlar rivojiga ta'sirini har tomonlama o'rganish bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekistonda aksiz solig'i ma'murchiligini takomillashtirish yuzasidan izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Soliq yukini kamaytirish va soliq tizimini soddalashtirish orqali iqtisodiy rivojlanishga turtki berish, shuningdek, investitsiyaviy muhitni yaxshilash, 2026-2027-yillarga qadar alkogol va tamaki mahsulotlari, shuningdek, shakar uchun import va mahalliy ishlab chiqarishda aksiz solig'i stavkalarini bosqichma-bosqich bixillashtirish, soliq ma'murchiligini raqamlashtirish doirasida elektron xizmatlar joriy etish, davlat soliq organlarining faoliyatini takomillashtirish hamda korrupsiyaga qarshi chora-tadbirlarni kuchaytirish orqali soliq nazoratining samaradorligi oshirish, milliy soliq qonunchiligini Jahon savdo tashkiloti talablariga muvofiqlashtirish maqsadida ayrim imtiyozlar va subsidiyalar bosqichma-bosqich bekor qilish, aksiz solig'i undirish mexanizmining samaradorligini oshirish maqsadida nazorat mexanizmlari takomillashtirish, soliq hisobotlarini avtomatlashtirish va raqamli monitoring

¹ Malov V.N., Kolber J.B. Absolyutistskaya byurokratiya i fransuzskoye obshchestvo. -M.: «Nauka», 1991. C.90.

tizimlarini joriy etish orqali soliq qonunchiligiga rioya qilish darajasini oshirish, aksiz solig‘i tizimidagi o‘zgarishlarning ijtimoiy-iqtisodiy ta‘sirini o‘rganish orqali uning barqarorligi va samaradorligini ta‘minlash bu borada amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar jumlasiga kiradi. Mazkur vazifalarni samarali amalga oshirishda belgilangan chora-tadbirlar yechimiga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022 - 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 24-iyuldagi PF-5771-son “Aksiz solig‘iga tortiladigan ayrim mahsulot turlarini ishlab chiqarish va realizatsiya qilishni tartibga solishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat soliq qo‘mitasi va Davlat bojxona qo‘mitasining 2018-yil 13-apreldagi AV-412-3-son “O‘zbekiston Respublikasi hududiga jismoniy shaxslar tomonidan tovarlarni aksiz solig‘i solinmasdan olib kirishning cheklangan normalari, shuningdek unga o‘zgartirishlarni o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risida”, 2018-yil 1-fevraldagi AV-2254-1-son ““Benzin, dizel yoqilg‘isi va aviakerosin uchun qat‘iy miqdorda belgilangan aksiz solig‘i stavkalarini qayta ko‘rib chiqish to‘g‘risida”gi buyruqni o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish haqida”, 2017-yil 23-noyabrdagi AV-2328-2-son “Chakana savdo tarmog‘ida sotiladigan oltindan ishlangan zargarlik buyumlariga aksiz solig‘ini hisoblab chiqarish va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qaror, shuningdek unga o‘zgartirishlarni o‘z kuchini yo‘qotgan deb topish to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur sohaga oid boshqa me‘yoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. O‘zbekistonda aksiz soliq ma‘murchiligini takomillashtirishga oid takliflarni ko‘plab klassik olimlar ilmiy-nazariy va amaliy jihatlari xorijlik iqtisodchi olimlar A.Smit, D.Rikardo, A.Atkinson, K.Makkonnell, S.Bryu, A.Busgin, R.Kouz, M.Fridman, A.Laffer, Y.Shumpeter, G.Menkyu, V.Panskov, U.Petti, A.Pogorleskiy, D.Rikardo, P.Samuelson, A.Smit, A.Sokolov, S.Sutrin, V.Tverdoxlebov, E.Teyt, D.Tixonov, S.Fisher, T.Yutkinalar va boshqa xorijlik iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan². Kichik va o‘rta biznesni soliqqa tortish mexanizmini

²Адам Смит о природе капитала (аудиокнига MP3) (сборник), Исследование о природе и причинах богатства народов livelib.ru:https://www.livelib.ru/author/149932/top-adam-smit, Рикардо Д. Начала политической экономики и налоговогообложения, Антология экономической классики.ISBN: 978-5-699-18745-4 Год издания: 2007, Аткинсон А. Управленческий учет, Год издания: 2016 Издательство: Вильямс., Вруе S. L., MacPhee C. From Marx to Markets: Reform of the University Economics Curriculum in Russia // Journal of Economic Education. Vol. 26, № 2, Spring 1995., Макконнелл К. Р., Брю С. Л., Флинн Ш. М. Экономикс: принципы, проблемы и политика: Учебник: Пер. с англ. 21-е изд.. — М.: Инфра-М, 2019. — 1152 с. — ISBN 978-5-16-6

soddalashtirishni umumiy jihatlari mamlakatimiz iqtisodchi olimlari A.Vahobov, M. Almardonov, B.Tuxliev, E.Gadoev, N.Kuzieva, D.Mutalova, Q.To‘xсанov, Sh.Babaev, F.Jumaniyazova, B.Ibragimov, U.Normurzayev va boshqalar ilmiy ishlarida tahlil qilingan³. Shuningdek, kichik va o‘rta biznes sub’ektlarini soliqqa tortish tizimini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot olib borgan D.Mutalova, Q.To‘xсанov, Sh.Babaev, F.Jumaniyazova, N.Ashurova, Q.Bozorov, O.Gaybullaev, I.Jalolov, M.Kamilov, A.Mamanazarov, I.Niyozmetov, U.Radjabov, Sh.To‘raev, B.Umarov, I.Yuldashev, M.Eshonov va boshqalarning ilmiy ishlarida o‘rganilgan. Yuqorida nomlari qayd etilgan olim va mutaxassislar tomonidan soliqlarning nazariy asoslari, iqtisodiy mazmuni, milliy iqtisodiyotdagi o‘rni va yalpi ichki mahsulotni taqsimlashdagi roli va ahamiyati to‘g‘risida ko‘plab ilmiy fikrlar hamda mulohazalar bildirilgan. Lekin, kichik va o‘rta biznes sub’ektlarini soliqqa tortish mexanizmining soddalashtirishini ta‘minlash va unga tasir etuvchi omillarni tahlil qilish uslubiyoti kabi masalalar ilmiy jihatdan nisbatan kam tadqiq etilgan.

O‘zbekistonda aksiz soliq ma‘murchiligini takomillashtirishga muhim jihatlardan biri soliqlarni adolatli taqsimoti bo‘lib, aksiz solig‘i hisob-kitoblari va uning bazasiga ta‘sir etuvchi omillarni aniqlash hamda soliq undirish mexanizmini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirilgan. Ammo bu borada mahalliy olimlar tomonidan ilmiy tadqiqotlar deyarli amalga oshirilmagan. Ayrim tadqiqotlar mazkur muammoning soliqqa tortish jarayonlari bilan va uning huquqiy jihatlari bilan cheklangan.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasi ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga bog‘liqligi. Dissertatsiya Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligi va prognozlashtirishini ta‘minlashning ilmiy-uslubiy asoslari va uslubiyatlarini takomillashtirish” mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi aksiz soliq ma‘murchiligini takomillashtirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

012985-3., Бусыгин — статья из Большой советской энциклопедии, Коуз Р. Фирма, рынок и право / пер. с англ. Б. Пинскера. — М.: Дело ЛТД, 1993. — 192 с. — ISBN 5-86461-133-6., Блауг М. Фридмен, Милтон // 100 великих экономистов после Кейнса = Great Economists since Keynes: An introduction to the lives & works of one hundred great economists of the past. — СПб.: Экономикс, 2009. — С. 316—321. — 384 с. — (Библиотека «Экономической школы», вып. 42). — 1500 экз. — ISBN 978-5-903816-03-3., Нуреев Р. М. Й. А. Шумпетер: роль схоластики в истории экономического анализа // Экономический вестник Ростовского государственного университета. — 2005. — Т. 3. — № 4. — С. 20-27., Рикардо Д. Начала политической экономии и налогового обложения. Избранное / Д. Рикардо; [пер. с англ.; предисловие. П.Н. Клюкина]. — М.: Эксмо, 2008. — 960 с. — (Антология экономической мысли), Юткина Т.Ф. Налоги и налогообложение: Учебник. — 2-е изд., перераб. и доп. — М-ИНФРА-М, 2013. — 576 с. — (Серия «Высшее образование»).

³ Вахобов А., Маликов Т. Молия: дарслик. — Т.: Ношир, 2011. — 712 б., Альмардонов М. Тадбиркорлик фаолиятини ривожлантиришга солиқ тизимининг таъсири. Монография. — Т.: 2003. — 233 б.; Гадоев Э. ва бошқ. Солиққа оид ҳатолар. — Т.: «Иқтисодиёт ва ҳуқуқ дунёси» нашриёт уйи, 1996. — 128 б.; Қўзиёва.Н. Хорижий инвестиция иштирокидаги корхоналар молия ва кредит механизмини такомиллаштириш йўллари. — Т.: «ИQTISOD-MOLIYA», 2006, — 296 б, Муталова Д. Хўжалик юритувчи субъектларга "Кичик бизнес субъекти" мақомини берувчи мезонларни такомиллаштириш МД М, Иқтисодиёт ва таълим, 78-81, Базаров К.Т. Механизм налогообложения прибыли предприятий: проблемы и пути их решения. автореферат диссертации на соискание ученой степени к.э.н. — Т., 1998.— 20 с.;

Tadqiqotning vazifalari:

aksiz solig'i bo'yicha soliq bazasini aniqlash va aksiz solig'ini to'g'ri va o'z vaqtida hisoblashni nazorat qilishni ilmiy-nazariy jihatlarini hamda uning o'ziga xos jihatlariga oid ilmiy yondashuv shakllantirish;

ishlab chiqaruvchilar uchun aksiz solig'i bo'yicha ishlab chiqarishda soliq organlarining axborot tizimlari bilan integratsiyalash tizimni o'rganish va uni yanada takomillashtirish chora-tadbirlarni belgilash;

O'zbekistonda aksiz solig'i ma'murchiligini sohalar bo'yicha amaliyotdagi holatini o'rganish va ularni undirishning huquqiy asoslarini tadqiq qilish;

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining jahon iqtisodiy tizimiga integratsiyalashuvi chuqurlashib borishi va rivojlanishida aksiz solig'i ma'muriyatchiligiga oid muammolarining yuzaga kelish sabablarini aniqlash va bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

O'zbekistonda aksiz solig'i ma'murchiligini takomillashtirish bo'yicha xorij tajribasini o'rganish va respublikamizdagi aksiz solig'i bo'yicha tushumlarni tendensiya bilan qiyosiy tahlil qilish;

davlat soliq xizmati organlari tomonidan aksiz markalari bilan markirovkalash tizim bo'yicha taklif va tavsiyalar berish.

Tadqiqotning ob'ekti bo'lib O'zbekistonda aksiz solig'i to'lovchilarning faoliyati hisoblanadi.

Tadqiqotning predmetini aksiz solig'ini hisob-kitobi va aniqlangan bazalari bilan bog'liq bo'lgan iqtisodiy hamda tashkiliy-huquqiy munosabatlar majmui tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot ishida tahlilning mantiqiy va taqqoslama usullari, abstrakt-mantiqiy fikrlash, statistik, ilmiy abstraksiyalash, kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidigilardan iborat:

etil spirtini va alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarishda soliq organlarining axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan elektron hisobga olish, o'lchash uskunalaridan foydalanish ustidan tizimli nazoratni ta'minlash lozimligi hamda belgilangan talab buzilgan taqdirda, javobgarlikka tortish hamda qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilarni maxsus hisobga qo'yish uchun foydalaniladigan xavfni tahlil qilish tizimida mezon sifatida etil spirtini, alkogol mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar litsenziya talablarning buzilishini nazarda tutish taklifi asoslangan;

aksiz to'lanadigan xizmatlar toifasiga kiritiluvchi telekommunikatsiya mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatadigan O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslarini soliq to'lovchilar tarkibi, soliq solish ob'ekti hamda soliq bazasidan chiqarib tashlash orqali ular tomonidan aksiz solig'i to'lashni bekor qilish asosida aksiz soliq ma'murchiligini takomillashtirish taklifi asoslangan;

aksiz solig'i stavkalarini tarkibida shakar mavjud bo'lgan meva sharbatlari, kvas, kompot, salqin choylarga ham gazlangan shirin ichimliklar bilan bir xil miqdorda 1 litri uchun 500 so'm, oziq-ovqat xom ashyosidan rektifikatsiyalangan etil spirti, rektifikatsiyalangan va efiroaldegidli fraksiyadan texnik etil spirti va etil

spirtning boshlang'ich fraksiyasi 1 litri uchun 7450 so'm miqdorida belgilash asosida aksiz soliq ma'murchiligini takomillashtirish taklifi asoslangan;

solix xizmati organlari tomonidan aksiz markalari bilan markirovka qilinmagan ko'piklanadigan va tabiiy vino mahsulotlari majburiy raqamli markirovkalash orqali to'liq hisobga olinishi jarayonlarini davlat soliq organlari xodimlari nazorat qilinishini ta'minlash hamda ishlab chiqarilishi va realizatsiya qilinishi samaradorligi monitoringini o'rnatish taklifi asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

aksiz solig'ini hisob-kitobi va aniqlangan bazalari bilan bog'liq bo'lgan munosabatlarining iqtisodiy mohiyatining yangicha talqini berilgan;

aksiz solig'ini hisob-kitobi yuzasidan soliq tizimidagi ahamiyati asoslangan va uni amalga oshirishning xorij tajribasi asosida takliflari ishlab chiqilgan;

ishlab chiqaruvchilar uchun etil spirti va alkogolli mahsulotlarni ishlab chiqarishda soliq organlarining axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan elektron hisobga olish va o'lchash uskunalaridan foydalanish majburiyligi belgilash kerakligi bo'yicha taklifi berilgan;

solix xizmati organlari tomonidan aksiz markalari bilan markirovka qilinmagan ko'piklanadigan va tabiiy vino mahsulotlari majburiy raqamli markirovkalash orqali to'liq hisobga olinishini davlat soliq organlari xodimlari nazorat qilinishi kerakligi hamda ishlab chiqarilishi va realizatsiya qilinishi samaradorligini tahlil qilib borish zarurligi yuzasidan bergan taklifi inobatga olingan.

Tadqiqot natijalarining ishonchligi. Tadqiqot natijalarining tahlil jarayonida O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qishloq xo'jaligi vazirligi, Statistika agentligi, Soliq qo'mitasi hamda Kadastr agentligi rasmiy ma'lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi hamda ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarining Soliq qo'mitasi tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ishlab chiqilgan nazariy tavsifdagi xulosa va takliflardan aksiz soliq ma'murchiligini takomillashtirishga oid nazariy-uslubiy va soliq tizimiga oid maxsus ilmiy tadqiqotlarni amalga oshirishda foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalardan mamlakatimizda soliqqa tortish tizimini takomillashtirish, aksiz soliq ma'murchiligini takomillashtirish, soliq qonunchiligi va budjet-soliq siyosati konsepsiyasi loyihalarini ishlab chiqishda, davlat soliq xizmati organlari xodimlariga metodik qo'llanma sifatida soliqqa tortish va soliq nazorati shakllarini takomillashtirish, aksiz soliq ma'murchiligini bo'yicha darsliklar, o'quv va uslubiy qo'llanmalar ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. O'zbekistonda aksiz solig'i ma'murchiligini takomillashtirish yo'llari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

etil spirtini va alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarishda soliq organlarining axborot tizimlari bilan integratsiyalashgan elektron hisobga olish, o'lchash

uskunalaridan foydalanish ustidan tizimli nazoratni ta'minlash lozimligi hamda belgilangan talab buzilgan taqdirda, javobgarlikka tortish hamda qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilarni maxsus hisobga qo'yish uchun foydalaniladigan xavfni tahlil qilish tizimida mezon sifatida etil spirtini, alkogol mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar litsenziya talablarning buzilishini nazarda tutish taklifi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda PQ-73-son qarori 15-bandida tasdiqlanib, amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining 2023-yil 7-yanvardagi 29-01093-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida soliq xizmati organlari tomonidan aksiz solig'i to'lovchilar bilan o'zaro hisob-kitob qilishda qulay imkoniyat yaratiladi;

aksiz to'lanadigan xizmatlar toifasiga kiritiluvchi telekommunikatsiya mobil aloqa xizmatlarini ko'rsatadigan O'zbekiston Respublikasi yuridik shaxslarini soliq to'lovchilar tarkibi, soliq solish ob'ekti hamda soliq bazasidan chiqarib tashlash orqali ular tomonidan aksiz solig'i to'lashni bekor qilish asosida aksiz soliq ma'murchiligini takomillashtirish taklifi inobatga olinib, Soliq kodeksining 283-284-285-286-moddalaridan chiqarib tashlangan (O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining 2025-yil 22-yanvardagi 16/1-08648-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida aksiz solig'i ma'murchiligini takomillashtirib, mobil aloqa xizmatlari bo'yicha operatorlar ixtiyorida 1 trln. so'm hajmidagi mablag'lar qolishiga imkon yaratgan;

aksiz solig'i stavkalarini tarkibida shakar mavjud bo'lgan meva sharbatlari, kvas, kompot, salqin choylarga ham gazlangan shirin ichimliklar bilan bir xil miqdorda 1 litri uchun 500 so'm, oziq-ovqat xom ashyosidan rektifikatsiyalangan etil spirti, rektifikatsiyalangan va efiroaldegidli fraksiyadan texnik etil spirti va etil spirtining boshlang'ich fraksiyasi 1 litri uchun 7450 so'm miqdorida belgilash asosida aksiz soliq ma'murchiligini takomillashtirish taklifi asosida Soliq kodeksining 289³-moddasiga o'zgartirish kiritilgan hamda O'zbekiston Respublikasining 2022-yil 30-dekabrda O'RQ-812-son Qonuni asosida Soliq kodeksining 289²-moddasida tasdiqlanib, amaliyotga joriy qilingan (O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining 2025-yil 22-yanvardagi 16/1-08648-son va 2023-yil 7-yanvardagi 29-01093-son ma'lumotnomalari). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida soliq ma'muriyatchiligini takomillashtirish orqali soliq to'lovchilarga yanada qulaylik yaratishga xizmat qiluvchi adolatli soliqqa tortish imkoni yaratilgan;

solix xizmati organlari tomonidan aksiz markalari bilan markirovka qilinmagan ko'piklanadigan va tabiiy vino mahsulotlari majburiy raqamli markirovkalash orqali to'liq hisobga olinishi jarayonlarini davlat soliq organlari xodimlari nazorat qilinishini ta'minlash hamda ishlab chiqarilishi va realizatsiya qilinishi samaradorligi monitoringini o'rnatish taklifi amaliyotga joriy etilib, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 2-noyabrda 665-son qarorida tasdiqlangan (O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasining 2023-yil 7-yanvardagi 29-01093-son ma'lumotnomasi). Mazkur ilmiy taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida ushbu aksiz markalari bilan markirovka qilinmagan

ko'piklanadigan va tabiiy vino mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar va ularni realizatsiya qilishda aksiz solig'ini hisob-kitob qilish va soliq bazasini aniqlashda qulay imkon yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 5 ta ilmiy-amaliy konfrensiyalarda, jumladan 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy konfrensiyalarida ma'ruza ko'rinishida bayon etilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 5 ta ilmiy ish shu jumaladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy Atestatsiya Komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 3 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 150 betni tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning kirish qismida ilmiy tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning **“Aksiz solig'i ma'muriyatchiligining iqtisodiy mohiyati va huquqiy asoslari”** deb nomlangan **birinchi bobida** aksiz solig'ining joriy etilishi, iqtisodiy mohiyati va huquqiy asoslari, raqamli infratuzilmani rivojlantirish sharoitida aksiz solig'i hisob-kitobi va undirishning soliq ma'murchiligidagi o'ziga xos xususiyatlari shuningdek, xorijiy mamlakatlarda aksiz solig'i ma'murchiligini milliy soliq tizimiga uyg'unlashtirish masalalari masalalari yoritib o'tilgan.

Shuningdek, ushbu bob materiallarini tayyorlashda aksiz osti mahsulotlari bo'yicha soliqqa tortish borasidagi xorijiy mamlakatlar tajribalari tadqiq qilinib, tadqiqotda belgilangan vazifalar doirasida nazariy xulosalar shakllantirilgan.

Dissertatsiya ishi davomida aksiz solig'i ma'murchiligini takomillashtirish yo'llarida aksiz solig'ini joriy qilish va soliq stavkalarini birxillishtirish hamda budjet tushumlari barqarorligini ta'minlash jarayonini yoritib berish tanlab olingan va bu mavzuimizning dolzarbligini belgilab beradi.

O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti daromadlarida aksiz solig'ining salmog'i qo'shilgan qiymat solig'idan keyingi o'rinda turadi.

Aksiz solig'ining budjet daromadlaridagi ulushi 2014-2023-yillar oralig'ida o'rtacha 11-12 foiz atrofida bo'lganligini ko'rishimiz mumkin. 2014-yilda mazkur soliq jami budjet daromadlarining 15,6 foizini tashkil etgan bo'lsa, 2015-yilda 0,2 foizga tushib, 15,4 foizni, 2016-2017-yillarda ham 0,2 foizdan kamaygan bo'lib, 15,2-15,0 foizlarni tashkil etgan.



1-rasm. Davlat budjet daromadlarida aksiz solig'i ulushining o'zgarish dinamikasi⁴

2018-yil aksiz solig'i davlat budjetining 12,3 foizini tashkil etib, bu ko'rsatkichdan bir maromda kamayib borib 2019-yilga kelib, 8,8 foizgacha tushib qolgan. Bu ko'rsatkich yilning ikkinchi yarmidan boshlab neft mahsulotlariga belgilangan aksiz solig'i stavkalarining sezilarli darajada tushirilganligi bilan bog'liqdir. 2019-yilda ayrim bir mahsulotlarga (O'zbekistonda ishlab chiqarilgan paxta yog'i va AJ "Jeneral Motors Uzbekiston" ning avtomobillari) aksiz solig'ining bekor qilinishi va ba'zi tovarlarga esa stavkalarining keskin tushirilishi (neft mahsulotlari) natijasida mazkur soliqning jami tushumdagi ulushi 8,8 foizni tashkil etgan. Aksiz solig'ini davlat budjeti daromadlari tarkibidagi ulushining pasayish tendensiyaga ega ekanligi shu bilan izohlanadiki, Hukumat Qaroriga asosan "GM Uzbekistan" aksionerlik jamiyatining ishlab chiqarayotgan avtomobillari (Lasetti, Neksiya, Damas, Matiz va boshqalar), billurdan qilingan mahsulotlar, mebel, video va audio-apparatura hamda kumushdan yasalgan pichoq va sanchqilarga hisoblangan aksiz soliqlari ishlab chiqarishni rivojlantirish, iste'mol tovarlarining assortimentini ko'paytirish va raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish uchun korxonalarining o'z ixtiyorlarida qoldiriladigan bo'ldi. Shuning hisobiga hozirgi vaqtda aksiz solig'ining ulushi davlat budjeti daromadlari tarkibida kam salmoqni egallamoqda. Aksiz solig'i to'liq respublika budjetining daromadlar qismiga kelib tushadi va uning soliq yuki iste'molchilar zimmasida bo'ladi.

Soliq tizimida aksiz solig'i ma'muriyatchiligining iqtisodiy mohiyati va huquqiy asoslari yoritilib unda, aksiz solig'ining joriy etilishi, iqtisodiy mohiyati va huquqiy asoslari, raqamli infratuzilmani rivojlantirish sharoitida aksiz solig'i hisob-kitobi va undirishning soliq ma'murchiligidagi o'ziga xos xususiyatlari va xorijiy mamlakatlarda aksiz solig'i ma'murchiligini milliy soliq tizimiga uyg'unlashtirish masalalari Aksiz solig'i ma'muriyatchiligini takomillashtirish bilan bog'liq masalalarni tahlil qilish asosida bir nechta xulosalar chiqarish mumkin: Aksiz

⁴ Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

solig'ini ma'muriyatchiligidagi asosiy muammolardan biri ham soliq to'lovchilar, ham soliq organlari uchun tartiblarning murakkabligi hisoblanadi.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobida **“Aksiz to'lanadigan tovarlarni soliqqa tortishning amaldagi holati tahlili va rivojlanish tendensiyalari”** tadqiq qilinishi belgilab olingan bo'lib, asosiy e'tibor aksiz solig'i bazasini shakllantirish va aksiz to'lanadigan tovarlarning iqtisodiy salohiyatini tahlil qilish va aksiz solig'i stavkalarini miqdoriy aniqligi va ijtimoiy-iqtisodiy tahlili shuningdek, Aksiz solig'ini hisoblash tartibini iqtisodiyotni modernizatsiya qilishning soliq ma'murchiligining zamonaviy sharoitlariga moslashtirish tahlil qilingan.

Aksiz solig'i bazasini shakllantirish va aksiz to'lanadigan tovarlarning iqtisodiy salohiyatini tahlil qilish soliq ma'muriyatining muhim jihatlari hisoblanadi, ayniqsa budjetni optimallashtirish va yashirin iqtisodiyotga qarshi kurash sharoitida. Aksiz solig'i bazasini shakllantirish aksiz to'lanadigan tovarlarga alkogol, tamaki, neft mahsulotlari va ayrim turdagi avtomobillar kiradi. Tovarlar aksiz solig'iga tortilishini aniq belgilash muhim hisoblanib, aksiz solig'i ishlab chiqarish birligiga belgilangan miqdorda yoki tannarxga foiz sifatida olinishi mumkin. Hisoblashning shaffofligi va qulayligini ta'minlashda hujjatlar va buxgalteriya hisobga olgan holda, soliq bazasini shakllantirish uchun aksiz to'lanadigan tovarlarni ishlab chiqarish va aylanmasini aniq hisobga olish kerak. Bu samarali monitoring va nazorat qilish tizimlarini talab qiladi. Axborot texnologiyalari asosida elektron buxgalteriya hisobi va hisobot tizimlarini joriy etish shaffoflikni sezilarli darajada oshirishi va soliq to'lashdan bo'yin tovlashni kamaytirishi mumkin. Iqtisodiy salohiyatni tahlil qilish aksiz to'lanadigan tovarlar bozorida aksiz to'lanadigan tovarlar bozoridagi mavjud tendensiyalarni, shu jumladan talab, taklif va narx siyosatini tahlil qilish kerak.

Aksiz solig'ini hisob-kitob qilishda alohida e'tibor beriladigan turlaridan alkogol mahsulotlari hisoblanib, 1-jadvalda ko'rib turganidek o'tgan yilga nisbatan o'sishga erishildi. Jadval ma'lumotlaridan shuni ko'rish mumkinki, 2024-yilda jami spirt hajmi 4922,2 ming dal hisobiga 112458,5 mln.so'm aksiz solig'i hisoblanib, 2023-yilga nisbatan 158 foizga oshib ketgan. Buning sababi iste'mol spirtining narxini oshib ketishi va uni tayyorlashdagi xarajatlarni oshishi natijasida hisoblanadi. Xuddi shuningdek, 2024-yilda jami alkogol mahsulotlari hajmi 10538,7 ming dal hisobiga 1387460,1 mln.so'm aksiz solig'i hisoblanib, 2023-yilga nisbatan 122 foizga oshib ketgan. Buning sababi alkogol mahsulotlarining narxini oshib ketishi va uni tayyorlashdagi xarajatlarni oshishi natijasida hisoblanadi.

O'zbekistonda aksiz soliqlarining turli tovarlarga nisbatan stavkalari keyingi yillarda o'zgarib kelmoqda, bu esa davlat budjetiga ta'sir ko'rsatmoqda. Alkogol va tamaki mahsulotlari bo'yicha 2022-yildan boshlab, ichki bozorda ishlab chiqarilgan alkogol va tamaki mahsulotlariga qo'yilgan aksiz stavkalari o'rtacha 10%ga oshirildi. Shu bilan birga, neft mahsulotlariga nisbatan ham aksiz stavkalari oshirildi, masalan, benzin va dizel yoqilg'isi uchun stavkalar ham 10%ga ko'tarildi. Bu davlat budjetining asosiy daromad manbalari sifatida xizmat qiladi.

Soliqlarning davlat budjetiga ta'siri sifatida soliqlar, jumladan aksizlar, davlat budjetiga katta ta'sir qiladi.

1-jadval

Alkogol mahsulotlari ishlab chiqaruvchi va sotuvchilar bo'yicha 2022-2023-yillarda hisoblangan va to'langan soliqlar tahlili⁵

ming dal/mln.so'm

Mahsulot turi	2022-yil			2023-yil			o'tgan yilga nisbatan, %		
	hajm	hisoblandi	to'landi	hajm	hisoblandi	to'landi	hajm	Hisoblandi	to'landi
Hammasi	15 156,8	1 212 059,0	1 071 696,4	15 460,9	1 718 318,2	1 629 644,5	102%	142%	152%
jami spirt	5 171,3	71 297,4	67 847,9	4 922,2	112 458,5	119 257,6	95%	158%	176%
iste'mol spirti	4 949,1	68 229,7	67 847,9	4 871,5	104 758,6	105 478,2	98%	154%	155%
texnik spirt	222,2	3 067,7	0,0	50,7	784,9	0,0	23%	26%	0,0%
jami alkogol	9 985,7	1 140 761,6	1 003 848,5	10 538,7	1 387 460,1	1 291 615,2	106%	122%	129%
aroq, liker, konyak	8 811,4	1 121 708,5	987 732,3	9 612,2	1 354 143,2	1 275 695,7	109%	121%	129%
vino	1 174,3	19 053,1	16 116,2	926,4	33 317,0	15 919,5	79%	175%	99%

2022-yilda O'zbekistonning konsolidatsiyalashgan budjet daromadlari 254,6 trln so'mni tashkil etdi, va bu soliqlar orqali moliyalashtirildi. Davlat aksiz soliqlari va boshqa soliqlardan tushgan mablag'larni asosan ijtimoiy sohalariga yo'naltirmoqda, bunda asosan, sog'liqni saqlash va ta'lim sohalariga, shuningdek, boshqa ijtimoiy sohalar ham qamrab olingan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrda PQ-73-son "O'zbekiston Respublikasining "2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to'g'risida"gi Qonuni ijrosini ta'minlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorining 21-bandi va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 22-sentyabrda 595-son qarori bilan tasdiqlangan Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilarini soliq organlarida qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha maxsus ro'yxatdan o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomning 48-bandiga muvofiq Soliq qo'mitasi qaror qabul qilgan. Ushbu qarorga asosan, qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilarni maxsus hisobga qo'yish tizimida etil spirti hamda alkogol mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar uchun soliq xavfi mezonlari 3-jadvalga muvofiq tasdiqlangan.

Yuqoridagi 2-jadvalda keltirilgan mezonlar O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi, Moliya vazirligi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Tadbirkorlik sub'ektlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish bo'yicha vakil, Savdo-sanoat palatasi, Monopoliyaga qarshi kurashish qo'mitasi, Alkogol va tamaki bozorini tartibga solish hamda vinochilikni rivojlantirish agentligi bilan kelishilgan holda ishlab chiqilgan.

⁵ Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

2-jadval

Aksiz solig'i bo'yicha soliq tushumlarining tarmoqlar bo'yicha tahlili⁶

(mlrd.so'mda)

Soxa nomi	Yillar																			
	2019 -yil				2020-yil				2021-yil				2022-yil				2023-yil			
	Hisoblandi	To'landi	% da	Farqi	Hisoblandi	To'landi	% da	Farqi	Hisoblandi	To'landi	% da	Farqi	Hisoblandi	To'landi	% da	Farqi	Hisoblandi	To'landi	% da	Farqi
Respublika bo'yicha jami	11 696	9 496	81	-2 200	13 923	10 839	78	- 3 084	14 778	12 779	86	- 1 999	14 937	13 077	88	-1860	15 124	15 133	100	8
<i>shu jumladan:</i>																				
Transgaz	5 596	2 403	43	-3 193	5 577	2 944	53	- 2 633	4 023	2 371	59	- 1 651	3 930	2 334	59	- 1 596	2 552	2 568	101	16
Uyali aloqa kompaniyalari	1 055	752	71	-302	1 591	1 209	76	- 383	1 369	1 084	79	- 284	868	868	100	0	925	975	105	50
Tamaki mahsulot ishlab chiqaruvchilar	1 263	1 364	108	102	1 646	1 545	94	- 101	1 930	1 930	100	0	1 998	1 998	100	0	2 213	2 286	103	73
O'zbekneftgaz tarmog'i	685	692	101	6	971	924	95	- 48	1 133	1 124	99	- 9	1 161	1 132	97	- 29	824	810	98	- 14
Transport	3	1	56	-1	10	11	110	1	4	3	72	- 1	1	1	96	0	1	1	102	0
Alkogol mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar	1 427	1 428	100	1	1 608	1 582	98	- 26	1 687	1 655	98	- 32	1 784	1 760	99	- 24	2 089	2 249	108	160
Boshqalar	1 667	2 856	171	1 188	2 520	2 625	104	106	4 633	4 611	100	- 22	5 195	4 985	96	- 210	6 521	6 244	96	-276

⁶ Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Bu hozirgi kunda amaliyotda qo'llanilmoqda. Ishlab chiqarilgan alkogol va tamaki mahsulotlari haqidagi ma'lumot turli sohalarda, jumladan, iqtisodiyot, salomatlik va qonunchilik nuqtai nazaridan muhim hisoblanadi. Ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish, sotish va iste'mol qilishga nisbatan ko'plab qonun va qoidalar belgilangan. Alkogol mahsulotlari turli spirtli ichimliklardan iborat bo'lib, asosan, etil spirtining fermentatsiya yoki distillyatsiya jarayonlari orqali olinadi. Ularga pivo, vino, araq, konyak, viski kabi ichimliklar kiradi.

3-jadval

Qo'shilgan qiymat solig'i to'lovchilarni maxsus hisobga qo'yish tizimida etil spirti hamda alkogol mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar uchun soliq xavfi mezonlari⁷

Soliq xavfi belgilari	Soliq xavfi darajasi
“Asl belgisi” mahsulotlarni markirovkalash va kuzatib borish milliy axborot tizimi hamda iste'mol va texnik etil spirti, alkogol va tamaki mahsulotlari ishlab chiqarish hajmlarini hisobga olish axborot tizimini joriy etmagan yoki foydalanmaganda	Yuqori
Real vaqt rejimida avtomatlashtirilgan kuzatish tizimi (GPS) bilan jihozlangan hamda iste'mol va texnik etil spirti, alkogol mahsulotlarini ishlab chiqarish, ularning aylanmasi hajmini hisobga olish hamda uzumzorlarning yagona reestri axborot tizimiga integratsiya qilingan elektron hisoblagich o'rnatilgan avtotransport vositalarida iste'mol va texnik etil spirtini realizatsiya qilishni ta'minlamaganda	Yuqori
Barcha iste'mol va texnik etil spirti ishlab chiqarish hamda alkogol mahsulotlarini quyish liniyalarida yig'ma hisobga olish ma'lumotlari ko'rsatkichlarini tegishli himoyalash vositasiga ega bo'lgan tayyor mahsulotlar uchun elektron hisoblagichlar mavjud bo'lmaganda	O'rta
Tashkilotlar tomonidan doimiy ravishda ustav fondining quyidagi miqdori ta'minlanmaganda: — iste'mol etil spirti va araq ishlab chiqaruvchi tashkilotlar uchun bazaviy hisoblash miqdorining 10 000 baravari — boshqa alkogol mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar (uzum va mevalarni birlamchi qayta ishlash tashkilotlari bundan mustasno) uchun bazaviy hisoblash miqdorining 1 000 baravari	O'rta
Aroq hamda iste'mol etil spirtidan (uzum va rezavor meva etil spirtidan tashqari) araq va likyor-arq mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha mavjud yillik ishlab chiqarish quvvatlaridan o'rnatilgan quvvatlarning 60 foizidan va yillik ishlab chiqarish hajmi absolyut alkogolga qayta hisoblaganda kamida 100 ming dekalitrdan kam bo'lganda	O'rta
Aroq ishlab chiqarmaydigan tashkilotlarda iste'mol etil spirtidan (uzum va rezavor meva etil spirtidan tashqari) likyor-arq mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha mavjud yillik ishlab chiqarish quvvatlaridan o'rnatilgan quvvatlarning 50 foizidan kam bo'lganda	O'rta

Ishlab chiqarishda alkogol mahsulotlari turli xom ashyolardan (arpa, javdar, uzum, sholi) olinadi. Ishlab chiqarish jarayonida fermentatsiya va distillyatsiya jarayonlari asosiy ahamiyatga ega. Tamaki mahsulotlariga asosan sigaretlar, sigaralar, chilimlar va tamaki chaynash mahsulotlari kiradi. Bu mahsulotlar nikotin moddasiga boy bo'lib, odamlarda kuchli o'rganish hissi tug'diradi. Ishlab chiqarishda tamaki mahsulotlari tamaki o'simligidan tayyorlanadi. Ishlab chiqarish

⁷ Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi..

jarayoniga tamakining yetishtirilishi, quritilishi va har xil ximiyaviy moddalar bilan qayta ishlanishi kiradi.

Soliq siyosatini takomillashtirishda aksiz solig‘i stavkalari ilmiy tadqiqotlarga asoslanib aniqlanishi lozim. Spirt miqdori, nikotin konsentratsiyasi va iste‘molchilik xatti-harakati to‘g‘risidagi ma‘lumotlardan foydalanib, soliq stavkasi belgilash to‘g‘ri natijalarga olib kelishi mumkin. Aksiz soliqlaridan tushgan mablag‘lar sog‘liqni saqlash dasturlari, alkogolizm va tamakiga qarshi kurash kampaniyalarini moliyalashtirishga yo‘naltirilishi kerak. Bojxona nazorat va qora bozorga qarshi kurashda xalqaro hamkorlik va global standartlarni joriy etish muhim ahamiyatga ega. Miqdoriy aniqlik va ijtimoiy-iqtisodiy tahlillar aksiz solig‘i siyosati samarali bo‘lishi uchun juda muhimdir. Davlatlar soliqlar miqdorini ijtimoiy salomatlik va iqtisodiy barqarorlik maqsadlarini ham hisobga olgan holda belgilashi lozim. Bundan tashqari ushbu alkogol va tamaki mahsulotlarni ishlab chiqarishda yirik va mayda ishlab chiqaruvchilarni tovar aylama hajmiga e‘tibor berish lozim bo‘ladi.

Buni biz 4-jadvalda tahlilini keltirganmiz. Bunda alkogol mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi korxonalar (yirik va mayda ishlab chiqaruvchilar) tomonidan taqdim qilingan aksiz solig‘i hisobotiga asosan 2020-2023-yillarda aksiz to‘lanadigan tovarlar realizatsiyasi o‘zgarishi alohida e‘tiborga olingan. Mazkur jadval tahliliga ko‘ra barcha alkogol mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar tomonidan 2023-yilda 2022-yilning hajmiga nisbatan 84,6 foizni tashkil etgan bir paytda, yirik aksiz solig‘i to‘lovchilar bo‘yicha jami 2023-yilda 2022-yil hajmining 87,7 foizni tashkil etmoqda. Mayda ishlab chiqaruvchilar tomonidan 2023-yilda 2022-yil hajmining 81,5 foizni tashkil etmoqda. Jadval ma‘lumotlariga e‘tibor beradigan bo‘lsak, aksiz solig‘ini har yili indeksatsiya qilish hisobiga alkogol mahsulotlarga bo‘lgan talabni kamaytirish, shuningdek, inson organizmi uchun zararli bo‘lganligini inobatga olib, ishlab chiqarish hajmi kamayish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu tahlil asosida alkogol mahsulotlarini kam iste‘moli natijasida jamiyat uchun foydaliligi hamda inson sog‘lig‘i uchun sarflanadigan xarajatlarni kamayishiga olib keladi va budjet xarajatlarida katta sarf talab qilmaydi.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish jarayonida aksiz solig‘ini hisoblash va undirish tizimini takomillashtirish soliq ma‘murchiligining samaradorligini oshirish uchun muhim ahamiyatga ega. Zamonaviy raqamli texnologiyalardan foydalanish, moslashuvchan va adolatli soliq stavkalarini joriy etish hamda shaffoflikni ta‘minlash orqali davlat budjeti daromadlarini barqarorlashtirish mumkin. Aksiz solig‘ini hisoblashni zamonaviy talablarga moslashtirish uchun takliflar ishlab chiqilgan. Taklif sifatida raqamlashtirish va avtomatlashtirish bo‘lib, elektron hisobot tizimlari, QR-kod va blokcheyn texnologiyalarini joriy qilish. Moslashuvchan soliq stavkalari bo‘yicha inflyatsiya, bozor kon‘yunkturasi va ijtimoiy-iqtisodiy omillarga qarab stavkalarni o‘zgartirish. Differensiallashgan aksizlar bo‘yicha ekologik toza texnologiyalarni rag‘batlantirish va zararli

mahsulotlarga yuqori stavkalarni joriy etish. Soliq ma'murchiligini raqamlashtirish bo'yicha soliq to'lovchilar uchun yuklamani kamaytirish va noqonuniy savdoni cheklash.

4-jadval

Alkohol mahsulotlarini yirik va mayda ishlab chiqaruvchilar tomonidan realizatsiyasi o'zgarishi tahlili⁸ (ming.so'mda)

Korxonasi nomi	Aksiz to'lanadigan tovarlar realizatsiyasi (dal)				O'tgan yilning mos davriga nisbatan farqi (+; -)			O'tgan yilning mos davriga nisbatan farqi (%)		
	2020-yil	2021-yil	2022-yil	2023-yil	2021-2020	2022-2021	2023-2022	2021/2020	2022/2021	2023/2022
HAMMASI	17 924 818,2	12993 586,5	11 636854,1	9 841 417,8	-4 931 231,7	-1 356 732,3	-1 795 436,3	72,5	89,6	84,6
Yirik ishlab chiqaruvchilar	7 843 815,3	7 190 200,0	5 767 273,4	5 056 342,6	-653 615,3	-1 422 926,6	-710 930,8	91,7	80,2	87,7
"Tashkentvino kombinati" AJ	3 835 760,4	3507 771,6	2 769 490,5	2 287 972,5	-327 988,8	-738 281,1	-481 518,0	91,4	79,0	82,6
"Nokis vinozavodi" AJ	936 224,0	996 839,1	910 089,2	873 994,0	60 615,0	-86 749,8	-36 095,2	106,5	91,3	96,0
MChJ "Far-Vab" QK	801 125,9	534 327,9	347 823,1	251 610,4	-266 798,0	-186 504,8	-96 212,6	66,7	65,1	72,3
MChJ "Afsar kompani LTD" QK	747 948,4	690 502,6	429 178,5	395 225,4	-57 445,8	-261 324,0	-33 953,2	92,3	62,2	92,1
"Farovon" MChJ	803 648,1	917 265,0	821 941,9	741 491,3	113 616,9	-95 323,1	-80 450,6	114,1	89,6	90,2
"Qamxar" MChJ	719 108,5	543 493,9	488 750,2	506 049,0	-175 614,7	-54 743,7	17 298,8	75,6	89,9	103,5
Mayda ishlab chiqaruvchilar	10 081 002,9	5 803 386,5	5 869 580,7	4 785 075,2	-4 277 616,4	-4 277 66 194,2	-1 084 505,5	57,6	101,1	81,5
"Shoxrud" AJ	487 121,3	945 333,6	1 721 104,9	1 235 871,7	458 212,4	775 771,3	-485 233,3	194,1	182,1	71,8
"Shaxrisabz vino aroq" AJ	542 150,4	419 358,8	367 593,3	209 675,1	-122 791,6	-51 765,5	-157 918,2	77,4	87,7	57,0
"Mastona" AJ	538 088,6	408 315,0	302 192,9	265 668,6	-129 773,6	-106 122,1	-36 524,4	75,9	74,0	87,9
"O'zbekiston shampani" AJ	599 268,9	323 560,3	391 702,8	670 803,2	-275 708,6	68 142,6	279 100,3	54,0	121,1	171,3
Qibray "Sharob" ilmiy-eksperimental korxonasi"	423 100,8	295 360,9	407 958,0	253 441,5	-127 739,8	112 597,1	-154 516,5	69,8	138,1	62,1
MChJ "Bonu galdin" QK	352 221,3	62 012,5	10 393,8	13 659,1	-290 208,8	-51 618,7	3 265,3	17,6	16,8	131,4
MChJ "Navigul" QK	331 402,3	120 256,7	86 680,5	94 180,9	-211 145,5	-33 576,3	7 500,5	36,3	72,1	108,7
"Konvin" AJ	467 297,0	246 802,5	281 080,4	82 494,4	-220 494,5	34 277,9	-198 586,0	52,8	113,9	29,3
"Guliston sharob" MChJ	318 890,1	178 496,8	86 897,6	70 304,0	-140 393,3	-91 599,3	-16 593,5	56,0	48,7	80,9
"Komsar" MChJ	327 022,5	115 704,8	10 732,8	11 171,9	-211 317,7	-104 972,0	439,1	35,4	9,3	104,1
"DAVR Sharob" MChJ	459 010,4	232 118,3	385 645,9	362 000,1	-226 892,0	153 527,6	-23 645,8	50,6	166,1	93,9
"Afsana sharob" MChJ	291 319,8	76 626,4	15 569,7	4 721,5	-214 693,4	-61 056,7	-10 848,2	26,3	20,3	30,3
MChJ "Elsun sharob" QK	400 253,4	399 528,5	307 196,8	200 496,0	-724,9	-92 331,6	-106 700,8	99,8	76,9	65,3
"Urganch sharob" AJ	310 430,1	56 169,4	81 191,5	121 686,9	-254 260,7	25 022,1	40 495,4	18,1	144,5	149,9
Boshqalar	4 543 856,2	1 979 911,3	1 494 831,4	1 310 587,4	-2 563 944,9	-485 079,9	-184 244,0	43,6	75,5	87,7

Ushbu choralar aksiz solig'ini yig'ish jarayonini soddalashtirish, iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlash va davlat budjetiga barqaror daromad manbaini ta'minlashga xizmat qiladi.

Dissertatsiyaning "O'zbekistonda aksiz solig'i ma'muriyatchiligini isloh qilishning istiqbolli yo'nalishlari va ularni takomillashtirish masalalari" deb nomlangan uchinchi bobida iqtisodiyotning aksiz to'lanadigan tarmoqlarini barqaror va samarali rivojlantirishda aksiz solig'i ma'muriyatchiligini takomillashtirish va zamonaviy axborot tizimlari orqali aksiz solig'i ma'muriyatchiligini takomillashtirish o'rganilgan.

Iqtisodiyotning aksiz to'lanadigan tarmoqlarini barqaror va samarali rivojlantirishda aksiz solig'i ma'muriyatchiligini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Aksiz solig'i ma'muriyatchiligida mahsulotlarning muayyan turlariga qo'yiladigan maxsus soliq bo'lib, uning asosiy maqsadi davlat budjetini to'ldirish va shu orqali foydalanishga mo'ljallangan tarmoqlarni tartibga solishdir.

⁸ Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Aksiz solig'ini takomillashtirish bo'yicha ba'zi asosiy yo'nalishlar mavjud. Birinchidan, ma'muriy jarayonlarni soddalashtirish bo'lib bunda aksiz to'lash jarayonini raqamlashtirish va elektron to'lov tizimlarini joriy qilish. Buxgalteriya va soliq ma'muriyati o'rtasida yangi avtomatlashtirilgan tizimlarni tatbiq etish. Maxsus axborot platformalari yaratish, mahsulotning harakati haqida ishonchli ma'lumotlarni taqdim etish. Ikkinchidan, soliq nazoratni kuchaytirish orqali aksiz turlarini aniq klassifikatsiya qilish va ularga tegishli ko'rsatkichlarni yangilash. Tashkilotlarga aksiz soliqlarining to'lovini ro'yxatdan o'tkazish va nazorat qilish mexanizmlarini mustahkamlash. Soliqni ushbu tarmoqlarda ro'yxatdan o'tmagan yoki noqonuniy ishlayotgan sub'ektlardan yig'ish. Uchinchidan, soliq inventarizatsiyasini amalga oshirish yuzasidan ma'lumotlarning aniqligi va ishonchliligini oshirish uchun har yili mahsulotlarning inventarizatsiyasini o'tkazish. Aksiz soliqlari to'g'risidagi ma'lumotlarni muntazam ishlash va ularning yangilangan hisob-kitoblariga tegishli monitoringni yuritish. To'rtinchidan, tahlil va statistika yordamida aksiz soliqlari bo'yicha raqamli tahlillarni amalga oshirish, bozordagi o'zgarishlarni va tarmoqlarning rivojlanish sur'atlarini hisobga olish. Yangi aksiz turlari yoki aniq sohalardagi soliq stavkasiga o'zgarishlarni o'tkazishda mukammal tadqiqotlar o'tkazish. Beshinchidan, kadrlar malakasini oshirish orqali aksiz to'lovchi sub'ektlar va davlat organlari uchun yangi tizimlar va ma'muriy qoidalar bo'yicha o'quv dasturlarini tashkil qilish. Mutaxassislarining malakasini oshirishga qaratilgan kurslar va seminarlar o'tkazish. Dunyo mamlakatlarida aholi jon boshiga alkogol iste'moli jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (JSST) va AQSh Markaziy razvedka boshqarmasining 189 mamlakatni qamrab olgan hisob-kitoblariga ko'ra, 2023-yilda dunyo bo'yicha aholi jon boshiga o'rtacha alkogol iste'moli yiliga 6,4 litr toza spirtni tashkil qiladi. Spirtli ichimliklarni eng ko'p iste'mol qilish bo'yicha peshqadam davlatlar qatoriga Belarus — 17,5 litr, Moldova — 16,8, Litva — 15,4 va Rossiya — 15,1 litr kiritilgan. Sobiq Ittifoq hududida: Gruziya — 7,45, Qirg'iziston — 4,02, Armaniston — 3,77, Qozog'iston — 3,73, Turkmaniston — 2,88, O'zbekiston — 2,45, Ozarbayjonda — 0,8 litr sof etil spirti iste'mol qilinadi.

5-jadval

Hamkor mamlakatlarda alkogol iste'moli darajasi⁹

Reytingdagi o'rni	Mamlakat	Iste'mol
7	Germaniya	13,4
38	Janubiy Koreya	10,2
45	AQSh	9,8
82	Xitoy	7,2
126	BAA	3,8
148	Turkiya	2,0

Jahon mamlakatlarida spirtli ichimliklarni iste'mol qilish ko'rsatkichlari Jahon sog'liqni saqlash tashkiloti (World Health Organization) uslubiyoti bo'yicha dunyo mamlakatlarida spirtli ichimliklarni iste'mol qilish bo'yicha aholi jon boshiga sof etil spirti litrda ifodalangan statistik ma'lumotlarni tahlil qilish asosida

⁹ Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.


hisoblanadi. Hisoblash 15 yosh va undan katta yoshdagi shaxslarni hisobga oladi. Yillik sayyohlar soni kamida ushbu mamlakatlar rezidentlari soniga teng bo'lgan mamlakatlarda, Jahon sayyohlik tashkiloti (UNWTO) ma'lumotlariga ko'ra, turistlarning spirtli ichimliklar iste'moli chegirib tashlanadi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining aholi jon boshiga tavsiya etilgan spirt miqdori – 1-yilda 10 litr (27,4 ml/kun) bo'lib, O'zbekistondagi 20 yoshdan katta aholisi (22,5 mln.nafar) aholisi ushbu norma doirasida iste'mol qilmasligi natijasida, budjetning faqatgina etil spirti bo'yicha aksiz solig'idan yo'qotishlari 4,9 trln.so'mni tashkil qiladi. JSST tavsiyasi bo'yicha norma 112,4 mln.litr – realizatsiya qilingan etil spirti hajmi 24,0 mln.litr = farq 88,4 mln.litr (78,6%) Alkogol bozori hajmini rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilganimizda “IWSR tahlilchilarining prognoziga ko'ra, 2023-yilda jahon alkogol bozori o'sishni ko'rsatib, jahon iqtisodiyotiga 21,6 mlrd.dollardan ortiq daromad keltiradi. Kelgusi yillarda o'sishning asosiy omillari Hindiston, Meksika, Braziliya, AQSh va Xitoy davlatlarida prognoz qilingan. 2022-yildan 2027-yilgacha bo'lgan davrda o'sish sur'ati past — yiliga o'rtacha 1 foizga yaqin bo'lishi kutilmoqda”. Nolegal alkogolli mahsulotlar bozorining hajmi o'rganilganda, “mavjud ekspert hisob-kitoblarga ko'ra, jahon alkogol bozorining 26 % nolegal alkogoldan iborat bo'lib, bu 40 mln. gektalitrndan ortiq, shu jumladan Yevropa Ittifoqida bu ko'rsatkich 13 %, Qozog'istonda 30 % va Rossiyada 27 % ni tashkil etadi”. O'zbekistonda ushbu baholash natijalari OAV e'lon qilinmagan. Yaqin davlatlarning iqtisodiyoti o'xshashligi munosabati bilan o'rtacha 25-30% atrofida bo'lishi mumkin.

Alkogol mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi 9 ta korxonada o'tkazilgan sayyor soliq tekshiruvlar o'tkazilib, 7 ta korxonadan 25 360 dona 491,5 mln.so'mlik alkogol mahsulotlari vaqtincha saqlash uchun olindi. Bularga “Xovrenko nomidagi Samarqand vino kombinati” AJdan 4 082 dona 59,3 mln.so'mlik muddati o'tgan, 953 dona 5,7 mln.so'mlik markirovkalanmagan, 488 dona 6,9 mln.so'mlik sotib yuborilgan mahsulotlar (markirovka kodi oborotda), “Samarqand Jomboy-Sharob” MChJdan 5 938 dona 139,0 mln.so'mlik eski aksiz markali (markirovkalanmagan), 345 dona 2,0 mln.so'mlik markirovkalanmagan, “Filatoff 1868” MChJdan 1500 dona 22,7 mln.so'mlik muddati o'tgan, “Komsar” MChJdan 1767 dona 32,9 mln.so'mlik agregasiyalanmagan, “Afsona sharob” MChJdan 10141 dona 219,6 mln.so'mlik qalbaki aksiz markali (markirovkalanmagan), “Zamin Vino” MChJdan 50 dona 0,5 mln.so'mlik aksiz markasiz, “Bulung'ur-1” MChJdan 96 dona 2,9 mln.so'mlik aksiz markasiz alkogol mahsulotlari vaqtinchalik olib qo'yilgan. Shuningdek, 8 ta korxonada 3093,0 mln.so'm TMZlarning kamomadi va ortiqchaligi aniqlangan. Qayd etilgan holatlar bo'yicha jami 14815,7 mln.so'm miqdorida moliyaviy jarimalar qo'llanilib, 497,4 mln.so'm undirilishi ta'minlandi. Bugungi kunda “Xovrenko Nomidagi Samarqand Vino Kombinati” AJ, “Samarqand Jomboy-Sharob” MChJ va “Komsar” MChJlarga SKning 227¹-moddasiga asosan qo'llanilgan 13 779,2 mln.so'mni bekor qilish bo'yicha korxonalar tomonidan sudga arizalar berilgan. 2023-yil spirt mahsulotini noqonuniy ishlab chiqargan korxonalar faoliyatida o'tkazilgan tekshiruvlarda aniqlangan holatlar (DXX ma'lumotlari asosida). Texnik etil spirtini noqonuniy (litsenziyasiz) ishlab chiqarayotgan 4 ta

korxonada o'tkazilgan tekshiruvlarda 37,1 tonna 285,3 mln.so'mlik spirt olib qo'yildi.

Tekshiruvda aniqlangan holatlar yuzasidan "Singlemix Industry" (27,1 tn 185,1 mln.so'm), "Eva Gold Technology" (5,0 tn 75,0 mln.so'm), "Ran Tritex" (5,0 tn 24,8 mln.so'm) hamda "Kamron" (vaqtincha ta'mirda bo'lgan, 15 litr olingan) korxonalariga nisbatan qonuniy chora ko'rilishi uchun to'plangan hujjatlar huquqni muhofaza qiluvchi organlarga yuborilgan. 2024-yil yanvar-iyul oylarida alkogol mahsulotlari savdosi bilan shug'ullanuvchi savdo nuqtalarida Onlayn-NKTdan foydalanish. Alkogol mahsulotlari savdosi bilan shug'ullanadigan 6,1 mingga yaqin savdo nuqtalari tomonidan 12,9 mln dona cheklar rasmiylashtirilib, realizatsiya summasi 2,8 trln.so'm bo'ldi. Kun davomida bir savdo nuqtasi tomonidan 10,1 dona chek taqdim etilib, o'rtacha chek summasi 216,5 ming so'mni tashkil qildi. Bir kunda Toshkent shahrida o'rtacha – 28,7 dona, Toshkent v. – 9,7 ta, Samarqand v. – 9 ta chek urilgan bo'lsa, Buxoro viloyatida – 4,3 ta, Xorazm v. va Qoraqalpog'iston Respublikasida – 4,1 ta va Surxondaryo v. – 2,4 dona chek rasmiylashtirilgan. O'rtacha chek summasi Surxondaryo v. – 1 223,6 ming so'm, Buxoro v. – 886,8 ming so'm, Qoraqalpog'iston R. – 854,6 ming so'm.

Yuqoridagi 2-rasmda kun davomida eng yuqori o'rtacha chek (1 308,5 ming so'm) tungi 01:00 va 02:00 oralig'iga to'g'ri kelsa, eng past ko'rsatkich (67,4 ming so'm) soat 05:00 va 06:00 oralig'ida. Asosiy tovar aylanmasi (39,8%) soat 15:00 va 19:00 orasida amalga oshirilgan. 928 ta savdo nuqtasi tomonidan tovar aylanmasining 50 foizdan ortiq qismi tungi soat 20:00 va 02:00 oralig'ida onlayn-NKT orqali ro'yxatga olingan (shundan, 197 ta nuqtaning 80 foiz aylanmasi tunda). Tovarlar uchun to'lovlarning 45,9 foizi bank plastik kartalari orqali, 54,1 foizi naqd pulga amalga oshirilgan. Naqd pul orqali to'lovlar eng yuqori ulushi Farg'ona – 78,7%, Andijon – 71%, Samarqand – 66,1%, Namangan viloyatida – 64,6%, eng past ulushi Qashqadaryo – 33,7%, Qoraqalpog'iston R. – 35,4%, Navoiy va Surxondaryo viloyatlarida – 35,5%.



2-rasm. Alkogol mahsulotlari savdosi bilan shug'ullanuvchi savdo nuqtalarida kun davomida (soatbay) Onlayn NKT cheklari summasi dinamikasi¹⁰

¹⁰ Soliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevraldagi PQ–4986-son qaroriga muvofiq 2025-yil 1-yanvardan boshlab uyali aloqa xizmatlariga aksiz solig‘i solinmasligi to‘g‘risidagi taklifi ma‘qullangan. Shundan kelib chiqib, mobil aloqa xizmatlarini ko‘rsatuvchi yuridik shaxslar aksiz solig‘i to‘lovchilari tarkibidan chiqarib tashlanmoqda. Benzin, aviakerosin, dizel yoqilg‘isi, motor moylari uchun belgilangan aksiz solig‘i stavkalari 2025-yil 1-apreldan boshlab inflatsiya darajasidan kam bo‘lmagan (10%) miqdorda indeksatsiya qilish taklif etildi. 2023-yilda tabiiy gazdan aksiz solig‘i 5,5 trln.so‘mni tashkil qilib, 2022-yilga nisbatan 30 foizga oshgan. Bunda, jami realizatsiya qilingan tabiiy gazning 28 foizi importga to‘g‘ri kelgan. 2023-yilda «UzGasTrade» AJ tomonidan jami 21 027 mln kub metr, shundan 28 foizi yoki 6 025 mln.kub metr import hisobiga (2022-yilda jami 21245 mln.kub m, shundan import – 4 156 mln.kub m, yanvar-iyul oylarida «O‘ztransgaz» AJ tomonidan realizatsiya qilingan) hamda «Hududgazta‘minot» AJ tomonidan 20583 mln kub metr (2022-yilda 21839 mln.kub m) tabiiy gaz realizatsiya qilingan. 2024-yil I–choragida tabiiy gazdan 1,1 trln so‘mlik aksiz solig‘i undirilib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 280 mlrd.so‘mga yoki 21 foizga kamaygan. Bunda, ushbu davrda 390 mln.dollarlik tabiiy gaz importi amalga oshirilib, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2 barobarga oshgan. 2024-yil 1-choragida «UzGasTrade» AJ tomonidan jami 4 857 mln.kub metr (shundan, 88 foizi yoki 4295 mln.kub metri import hisobiga) hamda «Hududgazta‘minot» AJ tomonidan 8381 mln.kub metr tabiiy gaz realizatsiya qilingan. 2024-yil prognoz parametriga muvofiq realizatsiya qilinadigan tabiiy gazning 24 foizi (2023-yilda – 14 foiz) import hisobiga amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Bugungi kunda, import va ichki tabiiy gaz umumiy gaz quvurlari orqali realizatsiya qilinishi sababli ularning aniq hisobini yuritish imkoniyati cheklangan. Xususan, import qilingan tabiiy gazni farqlash faqatgina bojxona yuk deklaratsiyasi (BYD) orqali amalga oshiriladi. Yetkazib beruvchilar tomonidan hisobot davrida avval butun sotilgan hajm uchun aksiz solig‘i to‘lanib, keyinchalik import qilingan gaz hajmini chegirgan holda aksiz solig‘i kamaytirilmoqda. Misol uchun, «UzGasTrade» AJ tomonidan 2023-yil oktabr – dekabr oylarida «Topcon limited» korxonasi (Rossiya) import qilingan 921 mln.kub tabiiy gaz uchun BYD rasmiylashtirilmaganligi sababli 295 mlrd.so‘m aksiz solig‘i to‘lab berilgan. Joriy yilning yanvar oyida ushbu tabiiy gaz hajmiga BYD rasmiylashtirilib, aksiz solig‘ining nol foizli stavkasi qo‘llanilgan holda fevral oyida tushum 295 mlrd.so‘mga kamaytirilgan. Shuningdek, realizatsiya qilingan tabiiy gazning import qismi qaysi ta‘rif bo‘yicha qaysi iste‘molchiga tekazib berilganligini aniqlash imkoniyati mavjud emas. Bu esa, budjetdan ajratiladigan subsidiya miqdoriga ta‘sir ko‘rsatadi. «UzGasTrade» AJ va «Hududgazta‘minot» AJ tomonidan tadbirkorlarga bir kub metr uchun 1 500-1 800 so‘m (shundan, aksiz – 223-268 so‘m).

Bunda, aholiga o‘rnatilgan ta‘rif 380 so‘mni (shundan, aksiz – 57 so‘m) tashkil etib, realizatsiya qilingan gazning qariyb 25 foizi aholiga yetkazib beriladi. Misol uchun, tadbirkorlarga import qilingan tabiiy gaz yuqori ta‘rifda sotilganda kamaytiriladigan aksiz solig‘i (223-268 so‘m) budjetdan ajratiladigan subsidiya miqdori oshishiga olib keladi. Shu bilan birga, avval import qilingan tabiiy gazni

keyinchalik bojxona rasmiylashtiruvdan o'tkazilishi va soliq to'lovchilar tomonidan to'lanadigan soliq kamaytirilishi hamda tabiiy gaz importi oshishi budget prognozlariga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Soliq stavkasini 12 foizgacha pasaytirgan holda import qilingan tabiiy gazni realizatsiya qilishda aksiz solig'i bo'yicha imtiyozni bekor qilish taklif etildi. Natijada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 10 fevraldagi PQ-4986-sonli qaroriga muvofiq 2025-yil 1-yanvardan boshlab uyali aloqa xizmatlariga aksiz solig'i solinmasligi to'g'risidagi taklifi ma'qullangan. Aholi salomatligiga ichimliklarning zararli ta'sirini kamaytirish maqsadida 2025-yil 1-apreldan boshlab:

tarkibida shakar mavjud bo'lgan meva sharbatlari, kvas, kompot, salqin choylarga ham gazlangan shirin ichimliklar bilan bir xil miqdorda 1 litri uchun 500 so'm miqdorida aksiz solig'ini joriy etish;


energetik va tetiklashtiruvchi ichimliklar uchun amaldagi soliq stavkasini saqlab qolish (1 litri uchun 2 000 so'm);

boshqa shirinlashtiruvchi yoki xushbo'ylantiruvchi moddalar mavjud bo'lgan ichimliklar uchun pastroq – 1 litri uchun 300 so'm miqdorda aksiz solig'i belgilash amalga oshiriladi. Jahon sog'liqni saqlash tashkilotining «Global report on the use of sugar-sweetened beverage taxes» 2023-yildagi hisobotiga ko'ra, gazlangan shakarli ichimliklarga aksiz solig'ini qo'llaydigan mamlakatlarning qariyb 74 foizi yagona soliq stavkasini qo'llaydi. Xorvatiya, Malayziya, Meksika, Niderlandiya, Saudiya Arabistoni, Turkiya, BAA mamlakatlarida shirinlashtiruvchi moddalar qo'shilgan sharbatlarga aksiz solig'i joriy etilgan.

Zamonaviy axborot tizimlari orqali aksiz solig'i ma'muriyatchiligini takomillashtirish bugungi kunda soliq tizimlarining samaradorligini oshirishda va korrupsiyani kamaytirishda muhim o'rin tutadi. Axborot texnologiyalari soliq yig'imlarini to'g'ri va o'z vaqtida amalga oshirish, biznes jarayonlarini osonlashtirish, shuningdek, nazoratni kuchaytirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Zamonaviy axborot tizimlaridan foydalanish orqali aksiz solig'i ma'muriyatchiligini takomillashtirish yo'nalishlari tahlil qilingan. Elektron soliq to'lov tizimlari orqali aksiz solig'i to'lovlarini amalga oshirish jarayonini soddalashtirish mumkin. Bu soliq to'lovchilarga aksiz solig'i hisob-kitobini avtomatik tarzda yuritish, soliq hisobotlarini onlayn tarzda taqdim etish va soliq majburiyatlarini elektron to'lovlar orqali amalga oshirish imkoniyatlarni beradi. Aksiz solig'i yig'imlarining samaradorligini oshirish uchun maxsus avtomatlashtirilgan nazorat tizimlarini joriy qilish zarur. Bunda, tovarlarning harakatini kuzatish va ma'lumotlarni real vaqt rejimida qayta ishlash va tovarlarning ishlab chiqarishdan to iste'molchiga yetkazilishigacha bo'lgan barcha bosqichlarini kuzatish orqali soliq to'lovlarini nazorat qilish. Fiskal modullar va shtrix-kodlar yordamida mahsulotlarga shtrix-kodlar yoki maxsus fiskal modullar o'rnatish orqali ularning har bir harakati avtomatik ravishda soliq tizimiga kiritiladi va shu tariqa nazorat ostida bo'ladi.

Soliq to'lovchilar uchun qulaylik yaratishda hisobotlarni mobil va veb-ilovalar orqali onlayn taqdim etish imkoniyati, byurokratik jarayonlarni kamaytirishda qog'ozbozlik va hujjat yuritish jarayonlarini avtomatlashtirish, ma'lumotlarning aniqligi va xavfsizligini ta'minlashda elektron tizim orqali

xatolarni kamaytirish va ma'lumotlarni himoya qilish, soliq tushumlarini oshirishda soliq hisobotlarini osonlashtirish orqali budjetga tushumni ko'paytirish va foydalanuvchilar uchun interaktiv yordamchi yaratish orqali soliq to'lovchilarga sun'iy intellekt asosida maslahat berish tizimini joriy etish ahamiyatli bo'la oladi.



3-rasm. Tadbirkorlik sub'ektlarining hisobotlarni topshirilishi bo'yicha ketma-ketlik va uning nazorati tartiblari¹¹

3-rasmda onlayn hisobot tuzish va taqdim etishda soliq deklaratsiyalari va hisobotlarini elektron tarzda yuborish, elektron raqamli imzo (ERI) orqali tasdiqlashda hujjatlarni mobil qurilma orqali imzolash va avtomatlashtirilgan soliq hisob-kitoblarida soliq majburiyatlarini hisoblash va to'lovlarni bajarish, ogohlantirish va eslatmalar – Solliq to'lov muddatlari haqida avtomatik xabarlar yuborish, foydalanuvchi profili va hisob-kitoblar tarixi orqali barcha hisobotlar va to'lovlarni onlayn kuzatish hamda sun'iy intellekt yordamidagi maslahatlar bilan soliq qonunchiligi bo'yicha o'zgartirish va qo'shimchalar kiritishga asos bo'la oladi. Bundan kutilayotgan natijalar bilan soliq hisobotlarini taqdim etish jarayoni 70% ga tezlashadi. Byurokratik kechikishlar va qog'ozbozlik yo'qoladi.

¹¹ Solliq qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Soliq organlari va to'lovchilar o'rtasida shaffoflik oshadi. Soliq tushumlari ortib, davlat budjetiga foyda keltiradi. Biznes sub'ektlari va yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun qulaylik yaratiladi. Soliq to'lovchilar uchun mobil va veb-ilovalar orqali hisobot berish imkoniyatlarini yaratish raqamli iqtisodiyot rivojlanishiga va soliq ma'muriyatchiligini soddalashtirishga xizmat qiladi. Bu tizim orqali soliq organlari va to'lovchilar o'rtasida ishonchli va tezkor o'zaro hamkorlik ta'minlanadi. Markazlashmagan soliq ma'muriyati tizimi aksiz solig'iga oid kontrabanda hamda soliقدan qochish holatlarini oshiradi. Qonuniy va noqonuniy tovarlarni aniqlashdagi kamchiliklar davlat budjetining zarar ko'rishiga olib keladi. Buni bartaraf etishda RFID (radiochastota identifikatsiyasi) va QR-kodli markalar orqali mahsulotlarni real vaqtda kuzatish tizimini joriy etish. Blokcheyn texnologiyasi yordamida har bir aksizli mahsulotning ishlab chiqarishdan sotuv nuqtasigacha bo'lgan harakatini shaffof kuzatish va soliq to'lovchilar uchun elektron monitoring tizimini joriy etish va uni sun'iy intellekt vositalari bilan mukammallashtirish lozim.

Aksiz solig'i ma'muriyatini takomillashtirish natijasida, bu tarmoqlardagi soliq to'lovlarining aniqligi va samaradorligi oshadi. Shu bilan birga, davlat budjetiga tushumlarning miqdori va mamlakat iqtisodiyotining barqarorligi ta'minlanadi. Zamonaviy axborot tizimlari orqali aksiz solig'i ma'muriyatchiligini takomillashtirish iqtisodiy samaradorlikni oshirish, soliq yig'implarining shaffofligini ta'minlash va ma'muriy resurslarni tejashga yordam beradi. Bunday tizimlar soliq to'lovchilar va davlat organlari o'rtasidagi hamkorlikni yaxshilash, shuningdek, korrupsiya va yolg'on to'lovlarni kamaytirishga imkon beradi.

XULOSA

Dissertatsiya ishida va ilg'or xorij tajribalar asosida quyidagi xulosalar va takliflarni shakllantirishga muvaffaq bo'lindi:

Aksiz solig'ini ma'muriyatchiligidagi asosiy muammolardan biri ham soliq to'lovchilar, ham soliq organlari uchun tartiblarning murakkabligi hisoblanadi. Jarayonlar va talablarni soddalashtirish muvofiqlikni oshirishga va ma'muriy yukni kamaytirishga olib keladi. Monitoring va ijro mexanizmlarini kuchaytirish soliq to'lashdan bo'yin tovlash va aksiz to'lanadigan tovarlarning noqonuniy savdosini cheklashga yordam beradi. Aksiz solig'ini samarali boshqarish uchun soliq organlari xodimlarining malakasini oshirish va malakasini oshirish zarur. Yaxshi tayyorlangan kadrlar murakkab soliq masalalarini hal qila oladi va soliqlarning adolatli va shaffof hisoblanishini ta'minlaydi. Ushbu xulosalar asosida aksiz solig'i ma'muriyatchiligini takomillashtirish bo'yicha quyidagi takliflar taklif etiladi:

1. Amaldagi aksiz solig'i to'g'risidagi qonunlar va me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish va aniqlik kiritish yo'nalishlarini aniqlash uchun har tomonlama ko'rib chiqish. Soliq ma'muriyati imkoniyatlarini oshirish va soliقدan bo'yin tovlashni yanada samarali aniqlash uchun ilg'or texnologiyalar va ma'lumotlar tahlilini kuchaytirish. Soliq organlari xodimlarining malaka va bilimlarini oshirish uchun ularni muntazam ravishda o'qitish va salohiyatini oshirish dasturlarini tashkil etish.

2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003-yil 13-fevrdagi 75-son qarori 1-ilovasi bilan tasdiqlangan Chakana savdo qoidalariga muvofiq, Sotuvchi-xodim tovarning nomi, uning sorti, markasi, modeli, tipi, tovarning og‘irligi, o‘lchami yoki birligiga narxi ko‘rsatilgan holda sotiladigan tovarlarning yagona namunadagi va aniq rasmiylashtirilgan narxnomalari bo‘lishini ta’minlashga majburligi ko‘rsatilgan. Tovar uchun narxnomada ko‘rsatilgan narxdan haqiqatda boshqa narxga sotilish va ushbu summaga xarid cheki berilgan taqdirda, sotib olingan tovarga xarid cheki berilmagan deb hisoblash va Soliq kodeksining 221-moddasi ikkinchi xat boshida nazarda tutilgan jarimani qo‘llash taklif etiladi.

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-maydagi 301-son qarori bilan belgilangan alkogol mahsulotlarining ulgurji savdosi bo‘yicha faoliyatni amalga oshirishdagi litsenziya talablari va shartlari, shuningdek, litsenziya olish uchun hujjatlar taqdim etish tartibini soddalashtirish taklif etiladi.

4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23 avgustdagi 707-son qarori (ishlab chiqaruvchi) va 2020-yil 20-maydagi 301-son qaror (ulgurji savdo)lari bilan tasdiqlangan litsenziya talablari va shartlariga tegishli qo‘shimcha kiritish taklif etiladi.

5. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-avgustdagi PF-6044-son Farmoni 3-ilovasiga muvofiq, 2021-yil 1-yanvardan boshlab alkogol mahsulotlari bilan chakana savdo qilish huquqini beruvchi ruxsat guvohnomasi bekor qilinib, xabardor qilish tartibi joriy etilgan. Xabardor qilish tartibida amalga oshiriladigan faoliyat turlari vakolatli organ tomonidan qaror qabul qilinishi talab etmaydi, qonun hujjatlarida belgilangan talab va shartlarga rioya etish majburiyatini yuridik shaxs o‘z zimmasiga olish orqali amalga oshiradi. Shunga muvofiq, savdo qoidalariga rioya etilishi yuzasidan tadbirkorga nisbatan ta’sir choralari ko‘rish mumkin.

6. Aksiz solig‘ining aralash stavkalarini soddalashtirib, stavkani qat’iy summalarda belgilash orqali sifatli (qimmatbaho) mahsulotlar ishlab chiqarilishini rag‘batlantirish.

7. Qo‘shni davlatlar bojxona va chegara xizmatlari bilan tamaki mahsulotlari kontrabandasiga qarshi kurashishda hamkorlikni rivojlantirish, shuningdek, 2018 yilda bekor qilingan bojxona depozitni (aksiz summasini) qayta tiklash masalasini ko‘rib chiqish.

8. Tamaki mahsulotlari noqonuniy aylanmasi hajmini qisqartirish borasida Jamoatchilik nazoratining yangi instrumentlari to‘g‘risida (xarid summasining 1% miqdorida Cashback hamda huquqbuzarlik to‘g‘risida xabar berishni rag‘batlantirishning Soliq Hamkor tizimi) soliq to‘lovchilarning bilimlarini oshirish maqsadida targ‘ibot tadbirlarini kengaytirish.

Ushbu takliflarni hayotga tatbiq etish orqali O‘zbekistonda aksiz solig‘i ma’muriyatchiligini takomillashtirish, daromadlarni samaraliroq yig‘ish, soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash holatlarini kamaytirish va soliq to‘lovchilar o‘rtasida qonunchilikni kuchaytirishga olib keladi hamda davlatimizda aksiz solig‘ini soliqqa tortish mexanizmi yanada takomillashtirilishiga erishiladi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ № DSc.03/10.12.2019.I.16.01
ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ЭКОНОМИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ**

РАДЖАБОВ ХУШВАКТ ЖАМШЕДОВИЧ

**ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ АДМИНИСТРИРОВАНИЯ
АКЦИЗНОГО НАЛОГА В УЗБЕКИСТАНЕ**

08.00.07 – Финансы, денежное обращение и кредит

АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по экономическим наукам

Ташкент – 2025

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована под номером B2024.2.PhD/Iqt4108 в Высшей аттестационной комиссии.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном экономическом университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на сайте Научного совета (www.tsue.uz) и на информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:	Тухлиев Бозор Каримович доктор экономических наук профессор
Официальные оппоненты:	Ташмуродова Бувсара Эгамовна доктор экономических наук, профессор Ашурова Насиба Батировна доктор экономических наук, профессор
Ведущая организация:	Банковско-финансовой академии Республики Узбекистан

Защита диссертации состоится в ____ часов «__» _____ 2025 года на заседании Научного совета по присуждению ученых степеней № DSc.03/10.12.2019.I.16.01 при Ташкентском государственном экономическом университете. (регистрационный номер № ____). Адрес: 100066, город Ташкент, проспект Ислама Каримова, 49. Тел.: (99871) 239-28-72, факс: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного экономического университета. Адрес: 100066, город Ташкент, проспект Ислама Каримова, дом 49. Тел.: (99871) 239-28-72, факс: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz

Автореферат диссертации разослан «__» _____ 2025 года.

(протокол реестра № __ от ____ «__» _____ 2025 года).

С.У. Мехмонов

Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

У.В. Гафуров

Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

С.К. Худойкулов

Председатель научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор экономических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и необходимость темы диссертации. В мировой экономике администрирование акцизного налога является важнейшим источником стабильных доходов государственного бюджета и играет важную роль в процессах экономического развития. Эффективное использование акцизных налогов создает возможность повысить качество и конкурентоспособность товаров и услуг, производимых внутри страны. Внедрение усовершенствованного механизма администрирования акцизного налога, упростив процесс сбора налогов, создаст среду прозрачного сотрудничества налоговых органов и производителей. Основной причиной широкого распространения акцизных налогов с древних времен и до наших дней является их фискальная значимость и высокий уровень собираемости. Это отмечал еще французский экономист Ф. Демезон в 1666 году: «Всего лишь один акциз способен обеспечить все прочие налоговые поступления и даже больше»¹. Администрирование акцизного налога призвано формировать потребительские привычки в обществе и обеспечивать правильное распределение экономических ресурсов путем контроля цен на продукцию, которая часто производится из вредного или дефицитного сырья. Непрерывные реформы и модернизация налогового администрирования позволят создать систему управления в акцизной сфере, отвечающую современным требованиям, обеспечивающую устойчивый рост и эффективность экономики.

В мире в условиях усиления процессов глобализации расширяются научные исследования по проблемам совершенствования администрирования акцизного налога. Важными направлениями научных исследований в данной сфере являются обеспечение прозрачности налоговой отчетности за счет использования электронных платформ, цифрового мониторинга, блокчейна и других информационных технологий, обновление нормативно-правовых документов по акцизным налогам, приведение национального законодательства в соответствие с международными стандартами, оптимизация процедур исчисления и уплаты акцизных налогов, всестороннее изучение влияния изменения ставок акцизов на уровень жизни населения, рыночное стимулирование и развитие соответствующих отраслей.

В Узбекистане проводятся последовательные реформы по совершенствованию администрирования акцизного налога.

В числе мер, реализуемых в этом направлении, можно назвать: предоставление импульса развитию экономики за счет снижения налогового бремени и упрощения налоговой системы, а также улучшение инвестиционного климата, постепенную унификацию ставок акцизных налогов на импортную и отечественную алкогольную и табачную продукцию и сахар к 2026–2027 годам, внедрение электронных услуг в рамках цифровизации налогового администрирования, повышение эффективности

¹ Malov V.N., Kolber J.B. Absolyutistskaya byurokratiya i fransuzskoye obshchestvo. -M.: «Nauka», 1991. С.90.

налогового контроля за счет совершенствования деятельности государственных налоговых органов и усиления мер по противодействию коррупции, постепенную отмену отдельных льгот и субсидий в целях приведения национального налогового законодательства в соответствие с требованиями Всемирной торговой организации, совершенствование механизмов контроля для повышения эффективности механизма взимания акцизных налогов, повышение уровня соблюдения налогового законодательства за счет автоматизации налоговой отчетности и внедрения систем цифрового мониторинга, обеспечение устойчивости и эффективности акцизной налоговой системы путем изучения социально-экономических последствий ее изменений. Для эффективной реализации этих задач важнейшее значение имеют научные исследования, направленные на поиск решений обозначенных мероприятий.

Данное диссертационное исследование в определенной степени служит реализации задач, определенных в Указах Президента Республики Узбекистан от 11 сентября 2023 года №УП-158 “О Стратегии “Узбекистан-2030””, от 28 января 2022 года №УП-60 “О Стратегии развития нового Узбекистана на 2022-2026 годы”, от 24 июля 2019 года №УП-5771 “О мерах по дальнейшему совершенствованию регулирования производства и реализации отдельных видов подакцизных товаров”, Постановлении Министерства финансов Республики Узбекистан, Государственного налогового комитета и Государственного таможенного комитета от 13 апреля 2018 года №АВ-412-3 “О признании утратившими силу предельных норм ввоза товаров физическими лицами на территорию Республики Узбекистан без уплаты акциза, а также изменений в них”, от 1 февраля 2018 года №АВ-2254-1 «О признании утратившим силу приказа “О признании утратившим силу приказа “О пересмотре фиксированных ставок акцизного налога на бензин, дизельное топливо и авиационный керосин””, от 23 ноября 2017 года №АВ-2328-2 “О признании утратившим силу постановления “Об утверждении Положения о порядке исчисления и уплаты акцизного налога на золотые ювелирные изделия, реализуемые в розничной торговой сети”, а также изменений к нему”, а также других нормативно-правовых актах, относящихся к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное диссертационное исследование выполнено в соответствии с приоритетными направлениями развития науки и технологий I. «Духовное, нравственное и культурное развитие демократического и правового общества, формирование инновационной экономики».

Степень изученности проблемы. Теоретические и практические аспекты совершенствования администрирования акцизного налога в Узбекистане исследованы в научных работах таких зарубежных ученых-классиков, как A.Smit, D.Rikardo, A.Atkinson, K.Makkonnell, S.Bryu, A.Busgin, R.Kouz, M.Fridman, A.Laffer, Y.Shumpeter, G.Menkyu, B. Пансков, U.Petti, А.Погорлеский, D.Rikardo, P.Samuelson, A.Smit, А.Соколов, С.Сутрин,

В.Твердохлебов, Э.Тейт, Д.Тихонов, S.Fisher, Т.Юткина и других зарубежных ученых-экономистов².

